

## MAQOLLARNING LINGVISTIK BIRLIK SIFATIDAGI QIMMATI

Abduraxmonova I.

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining mahsuli hisoblangan maqollarning lingvistik birlik sifatidagi maqomi borasida fikrlar yuritilgan. Maqollarning paremiologik birlik sifatida ifoda etadigan mazmunida yuzaga chiqadigan etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlar haqida ham mulohazalar bildirilib, tahlillar bilan asoslangan. Shuningdek, bir qancha tilshunos olim va tadqiqotchilarning maqollar bo‘yicha bergan xulosalariga munosabatlar bildirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *maqol, matal, barqaror birikma, paremiologik birlik, semantik, etnolingvistik, lingvomadaniy.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается статус пословиц, которые считаются продуктом народной устной культуры, как языковых единиц. Также обсуждаются и подтверждаются анализом этнолингвистические и лингвокультурные аспекты, проявляющиеся в содержании пословиц как паремнологических единиц. Кроме того, комментируются выводы ряда лингвистов и исследователей о пословицах.*

**Ключевые слова:** *пословица, устойчивое сочетание, семантический, паремнологическая единица, этнолингвистический, лингвокультурный.*

**Abstract.** *This article discusses the status of proverbs, which are considered a product of folk oral culture, as linguistic units. The ethnolinguistic and linguocultural aspects that emerge in the content of proverbs as paremiological units are also discussed and supported by analysis. Also, the conclusions of several linguists and researchers on proverbs are commented on.*

**Keywords:** *proverb, proverb, stable combination, paremiological unit, semantic, ethnolinguistic, linguocultural.*

Maqol xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lib, milliy dunyoqarash, madaniy o‘ziga xoslik va hayotiy tajriba natijasida yuzaga keladi. Maqollarning “*xalq maqollari*” (misol uchun, o‘zbek xalq maqollari, tojik xalq maqollari, ingliz xalq maqollari va b.) atamasi bilan aytilishi ham mazkur birliklarning ma‘lum bir xalqqagina tegishli ekanligini bildiradi. Demak, maqollarda madaniy individuallik ham mavjud bo‘ladi.

Maqollar xalqimizning ijtimoiy turmush tarzini ko‘rsatib beruvchi ko‘zgudir. Zero, maqollarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy va madaniy hayoti, urf-odatlarini yorqin aks

etadi. Maqollar insoniyat aqlini, zehni o‘tkirlashtiradi, nutqini aniq va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay blishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy-maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir<sup>12</sup>. Ularni lingvistik jihatdan o‘rganishda aynan shu jihat – madaniy o‘ziga xosliklarni aniqlash va bu belgilarning qaysi til birliklari vositasida yuzaga chiqarilganligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maqollar tahlili tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari sanaladigan etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyekti kiradi.

Tilshunoslikda maqollar paremiologik birliklar deb ham yuritilib turli semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. XX asrning ikkinchi yarmida maqollarni o‘rganish lingvistikaning yangi tarmog‘i – paremiologiya sifatida shakllandi. Paremiologiya (yun. *paroimia* – maqol) maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar va xalq aforizmlarini o‘rganuvchi fan sohasidir. Paremiologiya semantik tahlil, kognitiv lingvistika, etnolingvistika va lingvokulturologiya bilan bevosita aloqada bo‘lib, maqollarni xalq tafakkurining konseptual modeli sifatida tahlil qiladi<sup>13</sup>. Misol uchun, “*Quruq qoshiq og‘iz yirtar*”, “*Mehnat qilib topganing, qandu asal totganing*”, “*Olim bo‘lsang olam seniki*”, “*Bir marta shubhalanguncha yeti marta ishon*” kabi maqollar xalq tafakkuridagi ogohlantirish, mehnatsevarlik, bilimga intilish, pand-nasihati kabi konseptlarni ifodalaydi.

Maqollarni ilmiy jihatdan o‘rganish dastlab folklorshunoslik va etnografiya doirasida boshlangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan ular tilshunoslikning mustaqil obyekti sifatida qaralgan. Tilshunoslikda maqollarni o‘rganishning tarixiy ildizlariga qaraydigan bo‘lsak bu juda uzoq tarixga borib taqaladi. Maqollar xalq tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biridir. Ularning dastlabki namunalari qadimgi yozma manbalarda, jumladan “*Avesto*”, “*Devonu lug‘otit turk*”, “*Qutadg‘u bilig*”, “*Mahub ul-qulub*” kabi asarlarda uchraydi. Mahmud Koshg‘ariy maqollarni to‘plab, ularning semantik va grammatik tuzilishini tahlil qilgan ilk turkiy olim sifatida e’tirof etiladi<sup>14</sup>.

Maqollarni tilshunoslikning obyekti sifatida o‘rganish mazkur birliklarni barqaror birikmalar sifatida tadqiq etishdan boshlandi deyishimiz mumkin. Hatto ayrim tilshunoslar maqollarni frazeologizm sifatida ham baholab, tilde qotib qolgan, o‘zgarmas birlik deb ham baholaganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib

<sup>12</sup>Jo‘rayeva B., Xolova M. O‘zbek xalq maqollarida antroponimlar. Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Navoiy, 2023. – B. 53.

<sup>13</sup> Qarang: <https://www.samxorfil.uz/maqola>

<sup>14</sup> Qarang: <https://www.samxorfil.uz/maqola>

A.Potebnya, V.Vinogradov, G.Permyakov kabi olimlar maqollarni semantik, struktur va funksional jihatdan tahlil qildilar.

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada bir qator tadqiqotchilarning xizmatlarini takidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu borada XX asrning o‘rtalarida H.Zarifov, O.Safarov, S.Ibrohimov va M.Karimovlarning tadqiqotlari ahamiyatli bo‘lib, mazkur izlanishlar o‘zbek maqollarining leksik-semantik tuzilishini, ularning xalq mentalitetidagi o‘rnini va tarbiyaviy vazifasini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, H.Zarifov tomonidan o‘zbek maqollarining to‘plangan korpusi keyingi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi<sup>15</sup>. Maqollar tadqiqini antropotsentrik tadqiq etishga qaratilgan izlanishlarni D.Xudoyberganova, B.Jo‘rayeva kabi olimlar nomlari bilan bog‘lash mumkin. Bu tadqiqotlar maqollarning yangicha asosda tadqiq qilinishi bilan ahamiyatlidir.

Maqollarni o‘rganish asnosida, avvalo, mazkur til birliklarining boshqa yondosh hodisalardan, xususan, matal, ibora kabilardan farqlash masalasi birlamchi hisoblanadi. B.Jo‘rayeva maqollarning yondosh hodisalarga munosabatiga to‘xtalar ekan ularning farqlarini quyidagicha tasniflagan:

1. Maqolda faktik ahamiyat katta bo‘lsa, matalning informativ qiymati ustuvor bo‘ladi: *xavf-xatardan qo‘rqqan maqsadga yetolmas – chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas.*

2. Maqol matalga nisbatan o‘zgaruvchan va yuqori variantlikka ega, matal esa shaklan nisbiy turg‘undir: *kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda (matal) – bir qinga ikki qilich sig‘magay / ikkita qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas.*

3. Maqollar majoziy, ko‘chma ma’noga ega bo‘lsa, matallar to‘g‘ri o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Bu fikrga ham to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki maqol ham, matal ham ko‘chma, majoziy ma’nolarga ega. Lekin olima maqolni shu jihati bilan idiomalashgan, matalni esa idiomalashmagan birlik sifatida baholaydi<sup>16</sup>.

Maqol, matal va hikmatli so‘zlar semantik jihatdan turg‘unlik va obrazlilikga, sintaktik nuqtayi nazardan esa ular gap tuzilishiga ega ekanligi va ular hech qachon gap chegarasidan tashqariga chiqmasligi, uslub jihatidan frazeologik birliklarning boshqa tiplaridagi kabi turli tuman namunalarni namoyon qilishi sabab ular frazeologik sath birliklari hisoblanadi. Maqollar – milliy mentalitet, madaniyat, ramz va o‘xshatishlarning ko‘zguisi. Maqollarni lingvomadaniyatshunoslikda o‘rganishning ahamiyati shundaki, maqollar muayyan xalq, davlat yoki aynan bir davrga xos hisoblanadi<sup>17</sup>. Misol uchun, *“Qora qozon qaynasa, tol kosa*

<sup>15</sup> Qarang: <https://www.samxorfil.uz/maqola>

<sup>16</sup> Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 2006. – Б. 24.

<sup>17</sup> Yuldasheva O. O‘zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o‘rganilishi. PPSUTLSC -2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020 Page 263.

*topiladi*” maqolida davriy chegara ko‘zga tashlanadi. *Qora qozon, tol kosa* tarixiy sema ifodalab kelmoqda va bugungi davr uchun xos emas. Yoki “*Tug‘ilmagan bolaga tug‘dona beshik*” maqolida tug‘dona beshik madaniyat ko‘rsatkichi sifatida kelmoqda. Qadimdan farzandini beshikda katta qilgan o‘zbek xalqining madaniyatiga singib ketgan *beshik* lingvokulturema hisoblanadi. Tug‘dona daraxti esa anchayin baquvvat, boshqa daraxt yog‘ochlariga qaraganda sifatli sanaladi. va o‘ziga xos xushbo‘y hid kelib turadi. Odatda beshik bola tug‘ilgandan keyin tayyorlanadi. Maqol mazmunida hali bo‘lib o‘tmagan yoki bitmagan ishning muhokamasini qilish bilan bog‘liq mohiyat aks etgan.

Maqollarning o‘ziga xosligi shundaki, maqollarda xalqning hayot tajribalari, olam haqidagi tasavvurlari bilan bir qatorda til egalarining o‘ziga xos obrzali tafakkuri ham aks etadi. Maqollarni tahlil qilishda lingvomadaniy jamoaning olamni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq tarjibalari, donishmandligi, tafakkurini aks ettiruvchi milliy-madaniy xususiyatlar aks etgan leksemalarni ham o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini maqollarning lisoniy shakli va milliy madaniyatni hosil qiluvchi mazmunida ko‘ramiz<sup>18</sup>. Shunday ekan, maqollarning lingvistik maqomi, eng avvalo, lingvomadaniy va etnolingvistik jihatlarni o‘zida ifoda etishi bilan belgilanadi. Matniy ahamiyati esa lingvofolkloristik va intertekstuallik xarakteriga egaligi bilan bog‘liq. Bu esa maqollarning lingvistik tadqiq ko‘lami anchayin keng ekanligini va tilshunoslikning qaysi metodologiyasi asosida o‘rganilishi tadqiqot maqsadiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 2006. – 120 б.
2. Jo‘rayeva B., Xolova M. O‘zbek xalq maqollarida antroponimlar. Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Navoiy, 2023. – B. 53.
3. Yuldasheva O. O‘zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o‘rganilishi. PPSUTLSC - 2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020 Page 263.
4. <https://www.samxorfil.uz/maqola>

<sup>18</sup> Yuldasheva O. O‘zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o‘rganilishi. PPSUTLSC -2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020 Page 263.